

MEHNAT STAJINING PENSIYAGA TA'SIRI. XORIJ TAJRIBASI.

O'zbekiston Bank-moliya akademiyasining

2-bosqich magistranti

Nazarova Umida Kattaboy qizi

Mehnat staji – shaxsning ish faoliyati davomida rasman yoki norasmiy tarzda o'tkazgan ish yillari hisoblanadi. U har bir mamlakatning Qonunchilik bazasiga muvofiq, ish faoliyati davomida yopilgan soliqlar yoki sug'urta badallariga asoslanadi. Masalan, Germaniyada mehnat staji shaxsning pensiyaga chiqish yoshida pensiya nafaqasi miqdorini belgilaydi. Yaponiyada esa fuqarolarning mehnat faoliyati davomida to'lagan ijtimoiy sug'urta hissalarini mehnat stajining asosiy tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. AQShda esa mehnat staji ish beruvchi yoki ishchining to'lagan pensiya to'lovlariga asoslanib, fuqaroning ishlagan yillari va olingan daromadlariga qarab hisoblanadi.

Davlat pensiya tizimi – davlat tomonidan fuqarolarga rasman ishlagan yillari uchun pensiya to'lovlarini kafolatlaydigan tizim. Masalan, Germaniya va Frantsiyada davlat pensiya tizimi asosiy ko'rinishda bo'lib, u ishchilarning mehnat stajiga muvofiq to'lovlarni ta'minlaydi.

Xususiy pensiya tizimi – xususiy sug'urta kompaniyalari yoki fondlar orqali fuqarolarning pensiyaga chiqish uchun shaxsiy mablag'larni yig'ish tizimi. Bu tizim AQSh, Buyuk Britaniya va Shveytsariya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan.

Mehnat staji va pensiya tizimi o'rtasidagi bog'liqlik jamiyatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy himoyasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plab mamlakatlarda pensiya yoshga etgan fuqarolarning daromadlarini saqlab qolishda va ularning turmush darajasini ta'minlashda mehnat staji asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababli, pensiya tizimining samaradorligini oshirish va mehnat stajini to'g'ri hisoblash masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy adolatni ta'minlashning muhim omili

hisoblanadi. Mehnat staji — ish beruvchilar yoki davlat tomonidan rasmiy ish faoliyatini amalga oshirish jarayonida yig'ilgan ish yillari to'plami hisoblanadi. Pensiya miqdori ko'pincha mehnat stajiga bog'liq bo'lib, uzoq yillar davomida ishlagan shaxslar yuqori pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, mehnat staji pensiya yoshiga etganda fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy himoyasi uchun muhim shart hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarning pensiya tizimlari va mehnat staji hisob-kitoblarini tahlil qilishdan maqsad — turli davlatlar tajribasini o'rganib, O'zbekiston uchun samarali pensiya tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu jarayonda har bir mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va demografik xususiyatlari inobatga olingan holda, mehnat stajining pensiyaga ta'sirini keng qamrovli tahlil qilish muhim. Xorijiy tajriba pensiya tizimlarining adolatli va samarali modellarini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Gibrid pensiya tizimi – davlat va xususiy pensiya tizimlarining birlashmasi bo'lib, fuqarolar davlat kafolati ostidagi pensiyaga qo'shimcha ravishda xususiy to'lovlar orqali ham mablag'yig'ishlari mumkin. Bunday tizimlar Avstriya va Niderlandiyada mavjud bo'lib, har ikki turdagi sug'urta to'lovlari pensiya miqdoriga ta'sir qiladi.

Xususiy pensiya tizimi – xususiy sug'urta kompaniyalari yoki fondlar orqali fuqarolarning pensiyaga chiqish uchun shaxsiy mablag'larni yig'ish tizimi. Bu tizim AQSh, Buyuk Britaniya va Shveytsariya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan.

Gibrid pensiya tizimi – davlat va xususiy pensiya tizimlarining birlashmasi bo'lib, fuqarolar davlat kafolati ostidagi pensiyaga qo'shimcha ravishda xususiy to'lovlar orqali ham mablag'yig'ishlari mumkin. Bunday tizimlar Avstriya va Niderlandiyada mavjud bo'lib, har ikki turdagi sug'urta to'lovlari pensiya miqdoriga ta'sir qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarda mehnat staji pensiya nafaqalarini hisoblashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Germaniya va Frantsiyada mehnat staji orqali yig'ilgan pensiya ballari nafaqa miqdorini aniqlaydi. Mehnat stajining uzoqligi pensiya miqdorini oshirib beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xorijiy tajriba Yaponiya, AQSh va Evropa mamlakatlarida pensiya nafaqalarining miqdori ish faoliyati

davomida to'plangan mehnat stajiga bog'liq. Masalan, AQShda ishchilarning 35 yil ichidagi eng yuqori maoshli yillari asosida pensiya hisoblanadi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, pensiya tizimlarining samaradorligi ishchi yoshi, mehnat staji va to'lovlarining hisob-kitobiga bog'liq.

O'zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish uchun ilg'or tajribalarni tatbiq etishga turtki bo'lishi mumkin. Xorijiy mamlakatlarning pensiya tizimlarini tahlil qilish mehnat stajiga asoslangan adolatli nafaqa tizimini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Daniyadagi tadqiqotlarga ko'ra, ergonomik muhitning yomonligi yoki faoliyat turlarining og'irligi erta pensiyaga chiqish xavfini oshiradi. Ayniqsa, ayollar o'rtasida pensiya uchun asosiy sabablardan biri bo'lib ergonomik muhit omillari aniqlangan.

Britaniyadagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ish joylarida pensiya rejasi bilan ta'minlash darajasi ishchilarning pensiya zaxiralarini to'plashga ta'sir qiladi. Pensiya qo'llab-quvvatlovi yuqori bo'lgan kompaniyalar ishchilarining nafaqa miqdori va tayyorgarligi yuqori bo'ladi.

Rossiyada pensiya va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishdan maqsad, pensiya yoshini oshirish bilan mehnat bozorining faolligini oshirishdir. Bu o'z navbatida yoshi kattalarning ishlash imkoniyatlarini oshiradi va pensiya ta'minotini yaxshilaydi/

Germaniyadagi tadqiqotlarda mehnat sharoitlarining og'irligi erta pensiyaga chiqishning katta qismiga sabab bo'ladi. Bu nafaqat shaxsiy, balki davlat iqtisodiyotiga ham katta salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ishchi kuchini yo'qotish bilan ishlab chiqarish pastayadi. Xorijiy tajriba ko'rsatadiki, mehnat stajini hisoblash va to'lovlarni aniqlashda ish sharoiti, pensiya tizimlari va ish joyidagi pensiya qo'llab-quvvatlovi muhim ahamiyatga ega. Mehnat staji uzoq va barqaror ish faoliyati bilan bog'liq bo'lib.

– Germaniya: uzoq yillik mehnat staji natijasida pensiya miqdori taxminan 25%ga oshadi. Bu mehnat yillariga bog'liq bo'lgan pensiya ballari tizimi bilan bog'liq.

– Frantsiya: mehnat stajining ta'siri taxminan 22%ni tashkil qiladi. Odam qancha ko'p ishlasa, yig'ilgan pensiya badallari orqali pensiya ko'proq bo'ladi.

– AQSh: eng yuqori o'sish (taxminan 30%) kuzatiladi, chunki Amerikadagi Social Security tizimi pensiyani hisoblash uchun ishchining 35 yillik eng yuqori maoshlarini inobatga oladi.

– Yaponiya: mehnat staji pensiya miqdorini 28%ga oshiradi, bunda ijtimoiy badallar va ish davomiyligi muhim o'rin tutadi.

Buyuk Britaniya: pensiya miqdori taxminan 20%ga o'sadi. Bu davlat va xususiy pensiya tizimlarining gibril tizimi bilan bog'liq. Pensiya to'lovlari va mehnat stajining o'zaro aloqasi.

Xulosa

Germaniya va Frantsiya kabi Evropa mamlakatlarida mehnat staji pensiya to'lovlarining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Har ikkala mamlakatda ham ishchilarning mehnat faoliyati davomidagi to'plangan sug'urta badallari va ish staji pensiya miqdorini belgilaydi.

Germaniyada pensiya to'lovlari ishchi ishlagan yillar va o'sha davrda to'lagan pensiya hissalariga asoslangan "pensiya ballari" tizimiga bog'liq. Har bir ishchi o'z mehnat faoliyati davomida ballar to'playdi, va to'plangan ballar asosida pensiya miqdori aniqlanadi. Ko'proq ishlagan va yuqori daromadli bo'lgan ishchilar ko'proq ballar to'playdilar va, natijada, yuqori pensiya olish imkoniga ega bo'ladilar.

Frantsiyada ham pensiya to'lovlari mehnat staji va ish faoliyati davomida to'langan badallarga asoslanadi. Bu erda pensiya nafaqasi "retraite par répartition" tizimi orqali hisoblanadi. Frantsiyada pensiya olish uchun to'liq mehnat stajiga erishish muhim ahamiyatga ega. To'liq pensiya olish uchun 42-43 yil ishlash kerak bo'ladi, bu yillar orasidagi kamchilik pensiya miqdorini pasaytiradi. Pensiya yoshi va ishlash davri pensiya tizimining muhim jihatlaridan biri bo'lib, ishlash davri uzaygan sari pensiya yoshiga etib kelganda olinadigan to'lovlar miqdori oshadi.

Germaniyada pensiya yoshi asta-sekin 67 yoshgacha ko'tarilmoqda, bu orqali davlat fuqarolarni uzoqroq ishlashga rag'batlantirmoqda. Mehnat staji necha yil bo'lsa, shuncha ko'p ball to'planadi, bu esa yuqori pensiyani ta'minlaydi.

Frantsiyada ham pensiya yoshi 62 yosh bo'lib, lekin ish faoliyati davomiyligi uzoq bo'lgan ishchilar uchun pensiya miqdori yuqori bo'ladi. Pensiya olish huquqini to'liq ish stajiga erishgandan keyin qo'lga kiritish mumkin, va ish staji etmaganlar pensiya yoshini uzaytirish orqali yoki pensiya miqdorini qisqartirish orqali pensiyaga chiqishadi. Germaniya va Frantsiyadagi tajriba shuni ko'rsatadiki, uzoq yillik mehnat stajiga ega bo'lgan ishchilar yuqori pensiya olish imkoniyatiga ega bo'ladilar, va pensiya yoshiga etib kelganlar mehnat faoliyati davomida to'plangan sug'urta badallariga qarab nafaqa olishadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sholdarov D., Tursunov J. O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish. "Moliya" ilmiy jurnali. 2018-yil 1-son. 107 b.
2. Abdullayev Z. Pensiya ta'minoti tizimi va uning dolzarb muammolari. "Xalqaro moliya va hisob" elektron jurnali. № 2, oktyabr, 2016-yil. <http://interfinance.uz/en/arxiv/223-arxiv2>
3. Борисенко Н Ю. Мировой опыт проведения пенсионных реформ. \ \ Финансы и и кредит. 2004. №18, -с 54
4. Fasbender, U., Deller, J., Wang, M., & Wiernik, B. M. (2014). Deciding Whether to Work after Retirement: The Role of the Psychological Experience of Aging.